

SUG'D TARIXINING XORIJIY TADQIQOTLAR VA SOVET DAVRI TARIXSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHINING ILMIY TAHLILI

Maxmudov Dilshod Abdixalil o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

<https://orcid.org/0009-0000-7475-6108>

Erkinova Senora Uyg'un qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi 2-kurs magistranti

ogabekerkinova291@gmail.com

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilk o'rta asrlar Sug'dining konfederativ tuzilma sifatidagi xususiyatlari tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Muallif Sug'dni alohida hokimliklar majmui emas, balki murakkab boshqaruv tizimiga ega yagona tuzilma sifatida asoslaydi. Tadqiqotda Mug'tog'i hujjatlari tahlili orqali VII–VIII asrlardagi Sug'dning ichki siyosiy dinamikasi hamda Turk xoqonligi va Arab xalifaligi bilan munosabatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Sug'd, konfederatsiya, tarixshunoslik, Mug'tog'i hujjatlari, lingvistik tahlil, Panch, Kesh, Naxshab, Maymurg, Devashtich, ijtimoiy-siyosiy etimologik tahlil.

Аннотация: В данной статье с позиций современной историографии проводится анализ Согда раннего средневековья как конфедеративного политического образования. Автор обосновывает, что Согд представлял собой не совокупность разрозненных владений, а сложную систему управления с элементами политической интеграции. На основе анализа документов с горы Муг раскрываются особенности внутренней политической динамики Согда в VII–VIII вв., а также характер его взаимоотношений с Тюркский каганат и Арабский халифат. Особое внимание уделяется вопросам лингвистического и социально-политического анализа, что позволяет глубже понять природу конфедеративных связей между такими регионами, как Панч, Кеш, Нахшаб и Маймург, а также роль Деваштич в этих процессах.

Ключевые слова: Согд, конфедерация,

историография, документы с горы Муг, лингвистический анализ, Панч, Кеш, Нахшаб, Маймург, Деваштич, социально-политический анализ.

Abstract: This article provides a historiographical analysis of Sogd in the Early Middle Ages as a confederative political structure. The author argues that Sogd should be understood not as a collection of independent principalities, but as an integrated system with a complex administrative framework. Based on the analysis of the Mount Mugh documents, the study examines the internal political dynamics of Sogd in the 7th–8th centuries, as well as its interactions with the Turkic Khaganate and the Arab Caliphate. Particular emphasis is placed on linguistic and socio-political analysis, which helps to clarify the nature of confederative ties among regions such as Panch, Kesh, Nakhshab, and Maymurg, as well as the political role of Devashtich within this framework.

Keywords: Sogd, confederation, historiography, Mount Mugh documents, linguistic analysis, Panch, Kesh, Nakhshab, Maymurg, Devashtich, socio-political analysis.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Markaziy Osiyo xalqlarining davlatchilik tarixi va ilk o'rta asrlar ijtimoiy-siyosiy manzarasi haqida so'z ketganda, Sug'd mintaqasi o'zining o'ziga xos boshqaruv tizimi va yuksak madaniyati bilan ajralib turadi. Sug'd tarixiga oid mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur hududning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti turli yo'nalishlarda

nisbatan keng o'rganilgan. Biroq, mintaqaning boshqaruv tabiati va davlat tuzilishi masalalari hali ham ko'plab bahsli munozaralarga sabab bo'lmoqda.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Sug'd tarixiga oid mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur hududning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti turli yo'nalishlarda nisbatan keng o'rganilgan bo'lsa-da, Sug'dning ilk o'rta asrlardagi siyosiy tashkiloti, xususan, uning konfederativ tuzilma sifatidagi xususiyatlari maxsus va kompleks tadqiqot obyekti sifatida hali to'liq yoritilmagan. Tarixshunoslikda Sug'd ko'pincha alohida hukmdorliklar (Samarqand, Panch, Kesh, Naxshab, Maymurg' va boshqalar) majmui sifatida tasvirlanib, ularning o'zaro siyosiy aloqalari, boshqaruv mexanizmlari hamda umumiy siyosiy manfaatlar asosida birlashish jarayoni yetarlicha tahlil qilinmagan.

Sovet tarixshunosligida Sug'd masalasi, asosan, Turk xoqonligi va Arab xalifaligi bilan bo'lgan munosabatlar kontekstida, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar nazariyasi doirasida talqin qilingan. Natijada Sug'dning ichki siyosiy tizimi, hukmdorliklararo muvozanat va konfederativ hamkorlik mexanizmlari ikkinchi darajali masala sifatida ko'rilgan. Xorijiy tarixshunoslikda esa, aksincha, Sug'diy yozma manbalar va lingvistik materiallar chuqur tahlil qilingan bo'lsa-da, bu izlanishlar ko'pincha tor manbashunoslik doirasidan chiqmagan va siyosiy tuzilma masalasiga umumlashtiruvchi yondashuv yetishmagan.

Shu bois, Sug'd konfederatsiyasining shakllanish omillari, uning siyosiy-huquqiy tabiati, ichki tuzilmasi hamda tashqi siyosiy kuchlar bilan munosabatlari masalasi tarixshunoslikda ochiq qolayotgan ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, VII–VIII asrlarda Sug'd hududida yuz bergan siyosiy jarayonlarni yagona tizim doirasida tahlil qilish zarurati mavjud. Bu davrda Sug'd hukmdorliklarining Turk xoqonligi va Arab xalifaligi bilan munosabatlari faqat vassallik yoki bo'ysunish munosabatlari bilangina cheklanmay, murakkab siyosiy ittifoqlar va manfaatlar

muvozanati asosida shakllanganligini ko'rsatadi.

Bugungi kunga qadar Sug'd tarixi yuzasidan salmoqli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, mazkur ishlarda Sug'd konfederatsiyasi masalasi mustaqil va kompleks tadqiqot obyekti sifatida alohida ko'rib chiqilmagan. Mavjud tadqiqotlar mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda ularni bir necha asosiy guruhlariga ajratish mumkin.

Birinchi guruh – tarixiy-lingvistik tadqiqotlar: Sug'd tarixini ilmiy o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanganiga qaramay, bu sohada hanuzgacha bir qator munozarali va mavhum jihatlar mavjud. Ayniqsa, Sug'd tarixiga oid yozma manbalarni tarixiy-lingvistik jihatdan tahlil qilish masalasi muammoni o'rganishda birlamchi ahamiyat kasb etadi [1].

Sug'diy yozma yodgorliklarning dastlabki tarjimai va lingvistik tahlili ingliz olimi I. Gershevich nomi bilan bog'liq bo'lib, uning tadqiqotlari sug'dshunoslikdagi ilk fundamental izlanishlar sirasiga kiradi [2]. Ta'kidlash joizki, I. Gershevich Mug' tog'idan topilgan sug'diy hujjatlarning o'qilishi va talqini borasida muhim ilmiy natijalarga erishgan. Ushbu hujjatlarning ayrimlarining ingliz tiliga tarjima qilinishi sug'dshunoslik fanining jahon miqyosida rivojlanishiga mustahkam zamin yaratdi.

Shuningdek, V.A.Livshis tomonidan Mug' tog'i sug'diy hujjatlarini o'qish jarayonida I. Gershevichning 1961-yil 29-sentyabrda yo'llagan maktubi muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilgani alohida qayd etiladi [3].

Sug'd tarixi bo'yicha yozma manbalarni lingvistik jihatdan tadqiq etgan ingliz eronshunosi N. Sims-Villyams izlanishlari ham muhim ahamiyatga ega [4]. Yozma manbalar asosida sug'diy lug'at tuzgan B. G'arib tadqiqotlari esa sug'd tilining leksik tizimini o'rganishda muhim bosqich bo'ldi [5]. Fransuz olimi F. Grene o'z izlanishlarida Mug' tog'i hujjatlari bilan bir qatorda "Qadimgi xatlar" hamda Kulto'badan topilgan sug'diy hujjatlarni lingvistik jihatdan tahlil qildi [6].

Sug'diy yozma yodgorliklarning etimologiyasi masalasi I.S. Yakubovich

tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan bo'lib, muallif sug'diy nikoh shartnomalari (Nov. 3, Nov. 4) hamda Abdurahmon ibn Subhning Devashtichga yo'llagan maktublarini etimologik jihatdan tahlil qilgan [7]. Mazkur izlanishlarda Sug'dning siyosiy tarixiga oid muhim mustaqil xulosalar ilgari surilgan.

VII asr oxiri – VIII asr boshlariga oid tarixiy jarayonlar Mug' tog'idan topilgan 75 ta sug'diy hujjatning grammatik jihatdan o'rganilishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu tadqiqotlar sug'dshunoslikda yangi ilmiy bosqichni boshlab berdi [8]. V.A. Livshis tadqiqotlarida Sug'd boshqaruvida turkiy unsurlarning ishtiroki, xoqonlik va Panch hukmdorligi o'rtasidagi siyosiy munosabatlar tahlil qilinadi. Natijada Sug'd konfederatsiyasining Panch hukmdorligi xoqonlik bilan hamkorlikda Arab xalifaligi kuchlariga qarshi harakat qilgani haqida muhim xulosalar chiqarilgan [9].

Ikkinchi guruhga to'plangan adabiyotlar toponimik va tarixiy-geografik tadqiqotlarni o'z ichiga oladi: Sug'd konfederatsiyasi tarixini yoritishda muhim masalalardan biri uning tarkibidagi tarixiy toponimlarni aniqlash hamda ularning geografiyasi va topografiyasini o'rganishdir. Bu yo'nalishda A.L. Xromov, H. Hasanov, S. Qorayev, T. Nafasov kabi tadqiqotchilar O'zbekiston hududidagi umumiy toponimlarni tahlil qilish jarayonida sug'diy joy nomlariga izoh berganlar [10].

O.I. Smirnova tadqiqotlari ushbu yo'nalishda alohida o'rin tutadi. Olima Mug' tog'i sug'diy hujjatlaridagi Panch hukmdorligi tasarrufidagi toponimlarning topografiyasini aniqlab, Yuqori Zarafshon vohasining tarixiy-geografik xaritasini tuzdi [12]. Sh. Kamoliddin Sug'ddagi turkiy toponimlarni tadqiq etish bilan bir qatorda Markaziy va Janubiy Sug'd hukmdorliklarining tarixiy-geografiyasi hamda ma'muriy tuzilishini tahlil qildi.

P.B. Lurye sug'diy aholi maskanlari nomlarini lingvistik jihatdan tahlil qilgan bo'lsa-da, uning tadqiqotlarida Sug'd konfederatsiyasining siyosiy tuzilmasi yetarlicha yoritilmagan [12].

Uchinchi guruh – arxeologik tadqiqotlar: Sug'd tarixini arxeologik jihatdan o'rganish Turkiston o'lkasining Rossiya

imperiyasi tomonidan bosib olinishi davridan boshlab faollashdi. Afrosiyobdagi dastlabki qazishmalar N.I. Veselovskiy tomonidan boshlangan bo'lib, keyinchalik V.L. Vyatkin, V.V. Bartold, A.Yu. Yakubovskiy, M.Ye. Masson va boshqa ko'plab olimlar tomonidan davom ettirildi

XX asrning 40-yillaridan boshlab Tali-Barzu, Oqtepa, Kuldortepa, Kofirqal'a, Jartepa kabi yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar Sug'dning ilk o'rta asrlardagi madaniy va siyosiy hayotini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qildi. 1998 yildan boshlab Afrosiyobda o'zbek-fransuz arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, xususan Ko'ktepa yodgorligining ochilishi Sug'd davlatchiligi masalasiga yanada aniqlik kiritdi.

Janubiy Sug'd hududidagi arxeologik tadqiqotlar R.H. Sulaymonov boshchiligidagi olib borilib, Yerqo'rg'on yodgorligida Sug'dning qadimgi davlatchiligi bilan bog'liq muhim dalillar aniqlandi.

To'rtinchi guruh – numizmatik tadqiqotlar: Sug'dshunoslikda numizmatik tadqiqotlar muhim manba sifatida e'tirof etiladi. Allot de la Fyu tadqiqotlarida sug'diy yozuvli tangalar birinchi bor ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lsa-da, Sug'd konfederatsiyasi alohida siyosiy tuzilma sifatida talqin qilinmagan [12].

O.I. Smirnova tomonidan tuzilgan sug'diy tangalar katalogi Sug'dning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holatini o'rganishda beqiyos ahamiyatga ega. Ye.V. Zeymal tadqiqotlarida Sug'd konfederatsiyasi hukmdorlarining ilk tangalari tahlil qilingan bo'lib, siyosiy jarayonlarning tanga zarbida aks etishi yoritilgan.

Beshinchi guruh – umumiy tarixiy tadqiqotlar: Sug'd konfederatsiyasi tarixining ayrim jihatlarini umumiy tarixiy tadqiqotlarda yoritilgan. V.Tomashek, Y.Markvart, V.V. Bartold, S.G. Klyashtorniy, B. G'afurov, E.Vessiyer kabi olimlar tadqiqotlarida Sug'dning siyosiy, etnik va ma'muriy jarayonlariga e'tibor qaratilgan. Biroq ushbu ishlarda Sug'd konfederatsiyasining shakllanish mexanizmi va ichki tuzilmasi maxsus tadqiqot predmeti sifatida to'liq

yoritilmagan.

Sug'd tarixini ilmiy jihatdan tizimli o'rganish jarayoni XX asrda, ayniqsa Sovet tarixshunosligi shakllanishi bilan yangi bosqichga ko'tarildi. Aynan ushbu davrda Sug'd tarixiga oid arxeologik, tarixiy-geografik, numizmatik va yozma manbalarni kompleks tarzda jalb etgan tadqiqotlar yuzaga keldi. Shu bilan birga, xorijiy tarixshunoslikda, xususan Yevropa, Amerika va Yaponiya ilmiy maktablarida Sug'd tarixiga nisbatan mustaqil yondashuvlar shakllandi.

Sovet tarixshunosligida Sug'd tarixini o'rganish, avvalo, Markaziy Osiyo xalqlari tarixini umumittifoq konsepsiyasi doirasida yoritish bilan bog'liq holda olib borildi. Bu jarayonda Sug'd ko'pincha Turk xoqonligi, Eron va Arab xalifaligi bilan bo'lgan siyosiy munosabatlar kontekstida ko'rib chiqildi. V.V. Bartoldning fundamental ishlari Sug'd tarixini ilmiy davrlashtirish, tarixiy-geografik hududini aniqlash hamda arablar istilosi davridagi siyosiy jarayonlarni tushunishda metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

XX asrning o'rtalaridan boshlab Sug'd tarixini o'rganishda arxeologik materiallarga tayanish kuchaydi. M.Ye.Masson, A.Yakubovskiy, V.A.Shishkin, Ya.G'.G'ulomov kabi olimlar Afrosiyob, Panjikent, Yerqo'rg'on, Varaxsha singari yodgorliklarda olib borgan qazishmalar orqali Sug'dning shahar madaniyati, hunarmandchiligi va ijtimoiy tuzilmasiga oid muhim ma'lumotlarni ilmiy muomalaga kiritdilar. Natijada Sug'd jamiyati faqat savdo markazi sifatida emas, balki rivojlangan dehqonchilik va shaharsozlik an'analarga ega hudud sifatida talqin qilina boshlandi.

Sovet tarixshunosligida Sug'dning siyosiy tuzilmasi masalasiga nisbatan ehtiyotkor yondashuv kuzatiladi. B.G. G'afurov o'z tadqiqotlarida Sug'dni konfederativ uyushma sifatida talqin qilishga urinib, Samarqand, Kesh, Naxshab, Panch kabi hukmdorliklarning nisbatan mustaqil siyosiy subyekt bo'lganligini ta'kidladi. Biroq ushbu xulosa konseptual jihatdan chuqur asoslanmagan bo'lib, konfederatsiyaning shakllanish mexanizmi va ichki boshqaruv tizimi alohida tahlil qilinmadi.

Shuningdek, Sovet davri tadqiqotlarida

ideologik omil muhim rol o'ynaganini qayd etish lozim. Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar nazariyasi doirasida Sug'd jamiyati ko'pincha "ilk feodal munosabatlar" bosqichi bilan izohlandi. Bu holat ayrim tadqiqotlarda siyosiy institutlarning real tarixiy xususiyatlarini soddalashtirilgan holda talqin qilinishiga olib keldi. Shunga qaramay, O.I. Smirnova tomonidan olib borilgan izlanishlar Sovet sug'dshunosligining eng yuksak yutuqlaridan biri hisoblanadi. Uning Sug'd tangalari katalogi hamda "Sug'd tarixidan lavhalar" asari yozma, numizmatik va arxeologik manbalarni uyg'unlashtirgan holda Sug'dning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini yoritib berdi.

Xorijiy tarixshunoslikda Sug'd tarixini o'rganish Sovet maktabidan farqli ravishda, ko'proq manbashunoslik va lingvistik tahlilga asoslangan holda rivojlandi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida V. Tomashek va Y. Markvart tadqiqotlarida Sug'dning tarixiy-geografiyasi xitoy, arab va fors manbalari asosida qayta tiklashga urinishlar amalga oshirildi.

G'arb sug'dshunosligida I. Gershevich, N. Sims-Villyams, P.B. Lurye, F. Grene, E. de la Vessiyer kabi olimlar tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu izlanishlarda Sug'diy yozma hujjatlar, ayniqsa Mug' tog'i arxivi materiallari asosida Sug'dning siyosiy hayoti, hukmdorliklararo munosabatlar va mahalliy elita faoliyati tahlil qilindi. E. de la Vessiyer Sug'dni Markaziy Osiyodagi mustaqil siyosiy-madaniy makon sifatida ko'rib, uning Turk xoqonligi bilan bo'lgan munosabatlarini vassallikdan ko'ra murakkab siyosiy ittifoq sifatida talqin qiladi. Yapon sug'dshunoslik maktabi ham mazkur yo'nalishda muhim o'rin tutadi. K. Enoki, M. Mori, T. Hayashi, T. Osawa va Yu.Yoshida[13] tadqiqotlarida Sug'd savdogarlarining Yevroosiyo bo'ylab tarqalishi, ularning siyosiy va madaniy ta'siri masalalari yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda Sug'd ko'pincha transregional savdo va diplomatik tarmoqlarning markazi sifatida talqin qilinadi.

Xorijiy tarixshunoslikda Sug'd konfederatsiyasi masalasi bevosita atama sifatida kam qo'llanilgan bo'lsa-da, hukmdorliklararo siyosiy hamkorlik, umumiy sulolaviy an'ana va yagona madaniy makon

mavjudligi bilvosita tasdiqlanadi. Bu holat Sugʻdni markazlashgan davlatdan koʻra, muayyan siyosiy-iqtisodiy manfaatlar asosida birlashgan hududiy uyushma sifatida baholash imkonini beradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Sovet va xorijiy tarixshunoslikda Sugʻd tarixini

oʻrganish turli metodologik yondashuvlar asosida rivojlangan. Sovet maktabida Sugʻd koʻproq mintaqaviy siyosiy jarayonlar kontekstida va ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar nazariyasi doirasida talqin qilingan boʻlsa, xorijiy tadqiqotlarda lingvistik, manbashunoslik va transregional aloqalar masalalariga ustuvorlik berilgan.

ADABIYOT VA MANBALAR ROʻYXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Бартольд В. В. Сочинения. Т. II, Ч. 1. – Москва: Наука, 1963.
2. Беленицкий А. М. Древний Пенджикент. – Москва: Наука, 1965.
3. Frye R. N. The Heritage of Persia. – London: Weidenfeld & Nicolson, 1962.
4. Гафуров Б. Г. Таджикский народ. История. Т. 1. – Душанбе: Ирфон, 1972.
5. Gershevitch I. A Grammar of Manichean Sogdian. – Oxford: Basil Blackwell, 1954.
6. Gershevitch I. Sogdian Documents from Mount Mugh. – London: Oxford University Press, 1961.
7. Grenet F. Études sur l'Asie centrale antique. – Paris: CNRS Éditions, 2002.
8. Hasanov H. Oʻrta Osiyo toponimikasi. – Toshkent: Fan, 1980.
9. Камолиддин С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана. – Ташкент: Фан, 2011.
10. Лившиц В. А. Sogdian Documents from Mount Mugh // Bulletin of the School of Oriental and African Studies. – 1968. – Vol. 31, № 2. – P. 305–321.
11. Кляшторный С. Г. Древнетюркские рунические памятники как исторический источник. – Санкт-Петербург: Наука, 2003.
12. Смирнова О. И. Очерки из истории Согда. – Москва: Наука, 1970.
13. Yoshida Y. Sogdian Studies in Japan // Acta Orientalia. – 2011. – Vol. 64. – P. 1–24.